



XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 22 - sentabr

VI-79-85-10-0-K/23

Toshkent viloyati hokimiligi

Toshkent viloyati hududida huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida 2023-yilning 1-yarim yilligi davomida amalga oshirgan ishlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 02-aprel kundagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5050-sonli Qarori talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-noyabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 27-sonli Farmon talablariga muvofiq jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'rnatilayotgan yangi mexanizmlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashda ichki ishlar organlarining roli va mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi va uning quyi tizimlari tomonidan joriy yilning 06 oyi davomida xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi.

2023-yilning 6 oyida viloyatda 5 603 ta (5421) jinoyatlar, jinoyat qidiruv sohasida esa 3 386 ta (3204) jinoyatlar sodir etilgan. Jami sodir etilgan jinoyatlarning 3432 tasi yoki 61,3 foizi joriy yilda sodir etilgan.

Umumiy jinoyatlar Bekobod (213/186) shahar, Oqqo'rg'on (139/133),

Ohangaron (251/236), Bekobod (232/229), Bo‘ka (209/194), Bo‘stonliq (355/344), Yuqori Chirchiq (213/189), Qibray (374/326), O‘rta Chirchiq (253/250) va Toshkent (337/315) tumanlarida kamaygan.

Jinoyatlarning 2 424 tasini yoki 37,9 foizi aniqlanganlarni tashkil etadi. SHundan, 653 tasi giyohvandlik, 67 tasi ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlar, 85 tasi qo‘shmachilik yoki fohishaxona saqlash, 10 tasi odam savdosi, 35 tasi noqonuniy qurol saqlash, 62 tasi ma‘muriy nazorat qoidasini buzish, 19 tasi qalbaki pul yasash, 8 tasi valyuta qimmatliklarini qonunga xilof ravishda olish yoki o‘tkazish, 360 tasi o‘zlashtirish yoki rastrata va 93 tasi pora oldi-berdisi bilan bog‘liq jinoyatlarni tashkil etadi. Umumiy jinoyatlarning 2 171 tasi yoki 38,7 foizi avvalgi yillarda sodir etilib, joriy yilda hisobga qo‘yilgan jinoyatlarni tashkil etagan.

Viloyatda jinoyat turlaridan qasddan odam o‘ldirish (33/32), og‘ir tan jarohati etkazish (67/48), nomusga tegish (24/23), bosqinchilik (19/18), firibgarlik (757/754), o‘g‘irlik (815/810) va o‘lim bilan bog‘liq YTX (112/111) jinoyatlari kamayishiga erishilgan.

Joriy yilning 6 oyi davomida viloyat ichki ishlar organlarini boshqa huquqni muhofaza etuvchi idoralar va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda viloyat hududida jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta‘minlash maqsadida viloyat hududida “Havfsiz hudud”, “Ichki migratsiya”, “Muqaddam sudlangan shaxslarni bandligi ta‘minlash” va boshqa shu kabi maxsus profilaktik tadbirlar o‘tkazilgan.

Joriy yilning 6 oyi davomida Huquqbuzarliklar profilaktikasi yo‘nalishi bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, 127 ming 95 ta ma‘muriy huquqbuzarliklar aniqlanib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 9 ming 297 taga ko‘p aniqlangan. Shundan, 57 ming 436 nafar shaxslar profilaktik hisobga olingan. Aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha 14 mlrd 699 mln 550 ming 480 so‘m miqdorida jarima tayinlangan. 821 nafar shaxslar majburiy davolash muassasalariga, 987 nafar shaxslar reabilitatsiya qilish markaziga, 1 ming 303 nafar VEIHYOK markaziga, 5 ming 539 nafar maxsus qabulxonaga joylashtirildi. Hozirgi kunda 4 ming 111 nafar muqaddam sudlangan shaxslar mavjud bo‘lib, 2 ming 418 nafari ma‘muriy nazorat ostiga tushuvchi shaxslarni tashkil etadi, shundan 1 ming 441 nafari ma‘muriy nazoratga olingan. O‘tgan 6 oy davomida ma‘muriy nazorat qoidalarini buzganligi uchun 62 nafar shaxslarga nisbatan JKning 226-moddasiga asosan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

Joriy yilning 6 oyi davomida 641 ta ajrim yoqasiga kelgan oilalar o‘rganilgan va ular bilan profilaktik chora-tadbirlar olib borilgan, olib borilgan profilaktik chora-tadbirlar natijasida 455 ta oilalar yarashtirildi. Qolgan 186 ta oilalarni yarashtirish bo‘yicha choralari ko‘rilgan.

Shuningdek viloyat hududida o‘tkazilayotgan “Havfsiz hudud” maxsus profilaktik tadbirlarga 3 ming 978 nafar xodimlar va boshqa tashkilot xodimlari jalb

etilgan bo‘lib, ichki ishlar xodimlari 2 ming 397 nafarni tashkil etadi. Tadbirga jalb etilganlar tomonidan 201 ming 689 ta xonadonlar o‘rganilgan. 71 ming 321 nafar shaxslar IIBlarga olib kelingan, 17 ming 465 ta ma‘muriy bayonnomalar tuzilgan, 61 ming 748 nafar alohidagi toifadagi shaxslar tekshirilgan. Shundan, 27 ming 965 nafari muqaddam sudlangan shaxslarni, 11 ming 978 nafari probatsiya xisobida turgan mahkumlar, 19 ming 132 ta notinch oilarni tashkil etadi. 751 nafar ayollarga himoya orderlari berildi. Maktablarda 1549 marotaba davomad tadbirlari o‘tkazildi. 234 nafar shaxslar reabilitatsiya markaziga, 438 nafar shaxslar maxsus qabulxonaga va 248 nafar shaxslar VEIXYOK markaziga joylashtirildi. 1 ming 71 nafar tazyiq va zo‘ravonliklardan jabrlangan ayollarga himoya orderlari berildi. Xotin-qizlar orasida jinoyatchilikni oldini olish maqsadida 236 marotaba uchrashuvlar o‘tkazilgan.

Viloyat hududida 6 oy davomida Yo‘l harakati xavfsizligini oldini olish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi, bu borada oxirgi 3 yilda sodir etilgan yo‘l-transport hodisalari kompleks tahlili asosida tizimli ravishda YTHlarining barvaqt oldini olish, yo‘l harakati ishtirokchilarining madaniyatini oshirish maqsadida bir qator profilaktik tadbirlar o‘tkazib kelindi.

Jumladan, 701 marotaba korxona va tashkilotlarda, 1085 marotaba mahallalarda suhbat va yig‘ilishlar o‘tkazildi. 36 marotaba gazeta, jurnallarda, 187 marotaba televideniya va 388 marotaba radio hamda 961 marotaba ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar tashkil etilgan.

Joriy yilda hududlarda 26 marotaba mehnat yarmarkalari o‘tkazilib, 757 nafar ilgari sudlanganlarni ish bilan ta‘minlash bo‘yicha bandlik bo‘limlariga yo‘llanmalar berilib, 526 nafariga moddiy yordamlar ko‘rsatilgan.

2023-yilning 6 oyida ma‘muriy nazoratga olingan 929 nafar ilgari sudlanganlarga 2 ming 787 nafar MFY faollari va jamoatchilik vakillari murabbiy etib biriktirildi.

Viloyatdagi 886 ta maktabda ta‘lim olayotgan 504 ming 897 nafar o‘quvchilarni 2022-2023-o‘quv yilida o‘qishga kelib-ketishining kundalik nazorati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, joriy yil 25 may kuniga qadar 19 ming 847 marotaba “davomat” tadbiri o‘tkazilib, 407 nafar o‘quvchilarning uzoq muddatga chiqib ketganligi, 6 ming 205 nafar tarbiyasi og‘ir voyaga etmaganlarning 281 nafari tig‘li jism olib yurganligi aniqlanib, 6 ming 583 nafar ota-onalarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 47-moddasiga asosan tegishli choralar qo‘llanilgan.

Profilaktika inspektorlarining har oy yakuni bo‘yicha jinoyatchilik holatini xalq oldida hisobot berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, joriy yilning yanvar oyida 886 nafar, fevral oyida 887 nafar, mart oyida 884 nafar aprel oyida 883 nafar may oyida 784 nafar iyun oyida 847 nafar profilaktika inspektorlari xalq oldida hisobot berishlari ta‘minlangan.

Yuqoridagi tezkor-profilaktik tadbirlari natijasi 6 oyi davomida sodir etilgan jinoyatlarning 97,8 foizi fosh etilishiga erishilgan.

Qotillik jinoyati 33 tadan 32 taga kamaygan bo'lsa, Toshkent viloyatining Yangiyo'l, Nurafshon shaharlari, Quyi Chirchiq, Parkent va Chinoz tumanlarida mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan.

2023 yilning 6 oyi davomida mahalla, korxona va muassasalarda 5 ming 476 marotaba sodir etilgan jinoyatlar muhokama qilindi, jinoyat sodir etgan shaxslarning qilmishiga pushaymonlik tuyg'ularini shakllantirish maqsadida 197 dan ortiq "Sayyor sud" majlislari tashkil etilgan.

Amalga oshirilgan ishlar va jinoyatlarni oldini olish va fuqarolarning huquqiy ongini yanada oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali 700 dan ortiq chiqishlar qilindi. Shundan, televideniya 45 ta, radioda 38 ta, gazeta va jurnallarda chop etilgan intervyu va maqolalar 17 ta, internet va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda 576 tani tashkil qilgan.

Shahar va tuman ichki ishlar organlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini reyting tizimida baholash natijalariga ko'ra, 457 nafar ilg'or xodim va rahbarlar pul mukofoti va esdalik sovg'alari bilan rag'batlantirildi, past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan va xizmat intizomini buzgan 493 nafar xodimlar intizomiy tartibda jazolandi.

Yuqorida sanab o'tilgan ijobiy ko'rsatkichlar hamda qaror ijrosi doirasida amalga oshirilgan ishlar va yaratilgan shart sharoitlar shaxsiy tarkibni xizmat olib borishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa-da, ijobiy natijalar qatorida kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan.

Jumladan, viloyat hududida 2022-yilning 6 oyi davomida 5 ming 603 ta jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilgan bo'lib, shundan 3 ming 386 tasi jinoyat-qidiruv sohasidagi jinoyatlar hisoblanadi.

Jinoyat turlaridan 32 ta qotillik, 48 ta og'ir tan jarohati etkazish, 42 ta talonchilik, 18 ta bosqinchilik, 810 ta o'g'rilik, 23 ta nomusga tegish, 148 ta bezorilik, 754 ta firibgarlik, 24 ta transport vositasini olib qochish jinoyatlari sodir etilgan.

Sodir etilgan jinoyatlar shaxslar kesimida tahlil qilinganida, 563 tasi ishlamaydiganlar tomonidan, 606 tasi ayollar tomonidan, 153 tasi voyaga etmaganlar tomonidan, 1718 tasi yoshlar (18-30 yosh) tomonidan sodir etilganligi aniqlangan.

Shuningdek, alohida toifadagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tahlil qilinganda mast holatdagi shaxslar tomonidan 185 ta, ilgari sudlangan shaxslar tomonidan 563 ta, oila turmush doirasidagi 51 ta jinoyatlar sodir etilgan.

Viloyat hududida sodir etilgan jinoyatlarning 41,6 foizi yoki 2659 tasi mahallalarda sodir etilishiga yo'l qo'yilgan.

Yangi tartib bo'yicha qizil vaziyati og'ir mahallalarda mahalliy hokimlik vakillari, sektor rahbarlari, keng jamoatchilik bilan birgalikda ishlar tashkil etilgan bo'lsa-da, mahallalarda sodir etilgan jinoyatlarni kamayishiga erishilmagan.

Mahallalarda og'ir va o'ta og'ir, ayniqsa oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning sodir etilishiga hanuz yo'l qo'yilayotganligi ushbu hududlardagi ayniqsa sektor rahbarlari, mahalla raislari va profilaktika inspektorlari tomonidan etarli darajada ishlar amalga oshirilmayotganligini, jinoyatlarning sababi va shart-sharoitlari chuqur tahlil qilinib, muhokamalar o'tkazish ishlariga ayrim mas'ullar yuzaki yondoshilganligi ma'lum bo'lmoqda.

Viloyatda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i T.Aripovning hamda viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari Z.Iminovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mahalliy hokimliklar, davlat boshqaruvi idoralari, o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda jamoatchilik tashkilotlari tomonidan huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasida qonun hujjatlari bilan belgilangan vazifalarni bajarishda aniqlangan kamchiliklarni birgalikda bartaraf etilsin.

3. Viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i T.Aripovga:

ichki ishlar organi xodimlari tomonidan xizmat intizomiga qat'iy rioya etishlari, korrupsiyaga qarshi kurashish, poraxo'rlik va boshqa jinoyatlar sodir etilishini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

ichki ishlar xodimlarning bilim saviyasini yanada oshirish, ular bilan yakka tartibda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, turmushini o'rganib borish va ijtimoiy muhofazasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish;

viloyat hududida istiqomat qiluvchi profilaktik hisobda turgan muqaddam sudlangan, spirtli ichimlik va giyohvand moddalarni iste'mol qilishga ruju qo'ygan,

notinch oilalar va boshqa shaxslar bilan tegishli muassasa hamda tashkilotlar bilan hamkorlikda muntazam ravishda profilaktik suhbatlar o'tkazish, ularning turmush tarzini o'rganib borish, echimini topmayotgan muammolarni tegishli mutasaddilar bilan hal etish;

profilaktik hisobda turgan, ayniqsa, ilgari sudlangan, ma'muriy nazoratga olingan, probasiya hisobida turgan shaxslar tomonidan qayta jinoyatlar sodir etilishini oldini olish maqsadida doimiy ravishda ularning turmush tarzi, xulq-atvori, oilaviy daromad manbalarini o'rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etilishini kunlik nazoratga olish;

ilgari sudlangan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashishlarini engillashtirish maqsadida ularga mahalladan murabbiy biriktirish, ishsizlarini ish bilan ta'minlash chorasini ko'rish, mavjud muammolarini kerak bo'lsa shahar, tuman rahbarlari miqyosida hal etish choralarini ko'rish;

voyaga etmaganlar tomonidan jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olishda ham barchamiz o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Jumladan, ota-onalar farzandini nima bilan mashg'ulligini nazoratga olishlari, voyaga etmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologlar tomonidan tarbiyasi og'ir yoshlar bilan doimiy ravishda profilaktik tadbirlarni olib borishlari;

mahallalardagi yoshlar etakchilari tomonidan alkogolni, shuningdek psixotrop moddalarni va kishining aql-irodasiga kuchli ta'sir etuvchi moddalarni suiiste'mol qiluvchi yoshlarning iurmush tarzini, oilaviy sharoitini, salbiy odatlarga berilishining asl sabablarini aniqlash hamda yakka tartibda ijtimoiy profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim;

mahallalarda uzoq vaqt davomida o'zaro nizo va adovatda bo'lib kelayotgan shaxslar (qo'shnilar, qarindoshlar va boshqa shaxslar) ro'yhatlari domiy tarzda shakllantirilib, ular bilan yakka tartibda profilaktik suhbatlar o'tkazilib, nizolashish sabablariga aniqlik kiritilishi va ularni echimini topish choralarini ko'rib borish;

viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda, Jamoat joylarida aholi sog'lig'ini saqlashni ta'minlash, aholini sog'lom turmush tarziga undash, fuqarolarda o'zi va boshqa odamlar salomatligi uchun javobgarlik hissini tarbiyalash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

o'tkir alkogolli mastlik holatida jamoat joylarida bo'lgan, mustaqil harakat qilish yoki adashmay yo'l topish qobiliyatini yo'qotgan hamda o'zining harakatlari bilan jamoat xavfsizligiga tahdid soladigan shaxslarga mastlik holatini bartaraf etish maqsadida ularga tibbiy yordam ko'rsatish choralarini ko'rish;

alkogolizm, giyohvandlik, toksik moddalarni iste'mol qilish, o'zgalarga xavf tug'diradigan boshqa kasalliklarga chalingan shaxslar, shuningdek ruhiy kasalliklarni tibbiy ijtimoiy rehabilitasiya qilish ishlarini amalga oshirish;

sogʻliqni saqlash muassasalari hisobida turuvchi ichkilikka ruju qoʻygan, giyohvandlar hamda tajovuzkor ruhiy- kasallarni yashash manzili boʻyicha doimiy oʻrganib borish, bu borada “patronaj” xizmati tibbiyot xodimlarini keng jalb etish, shuningdek tibbiy yordamga muhtoj bemorlarni majburiy davolashga yotqizish choralari koʻrish;

shaxsning hayoti va sogʻligʻiga qarshi, shu jumladan oila turmush doirasida sodir etilgan, shuningdek, ayollar tomonidan jinoyatlar sodir etilishining barvaqt oldini olish va nizoli oilalardagi maʼnaviy muhitni yaxshilash maqsadida mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda oilalardagi maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizolarga barham berishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni yanada kuchaytirish;

tazyiq va zoʻravonlikka uchragan xotin-qizlarning jinoyatdan jabrlanishini oldini olishda himoya orderi rasmiylashtirish amaliyotini keng joriy qilish, bunda himoya orderiga rioya etilishi ustidan doimiy nazorat oʻrnatilib, cheklovlarni buzgan shaxslarga nisbatan qatʼiy choralarni koʻrib borish;

aholi oʻrtasida oilaviy nizolar, yoshlar tarbiyasiga eʼtiborsizlik holatlari, fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning turli yot gʻoyalar taʼsiriga tushib qolishi, ichkilikbozlik hamda giyohvandlik illatlariga berilishi, huquqbuzarliklarning sodir etilishi oilalar barbod boʻlishining asosiy sabablaridan biri ekanligi haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

yigit va qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh oilalarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga koʻmaklashish;

oilaning muqaddasligi va oilaviy munosabatlar buzilishining oldini olish boʻyicha manzilli targʻibot ishlarini tashkil etish;

yoshlar tomonidan jinoyatlar sodir etilishini oldini olish maqsadida, hududiy bloggerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali, ularni jinoyat olamidan qaytaruvchi, yoshlarimizning tafakkuriga va mafkurasiga ijobiy taʼsir koʻrsatuvchi, dunyoqarashidagi boʻshliqlarni toʻldiruvchi ijtimoiy roliklar ishlab chiqib, ularni targʻib qilish;

yoshlarni boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida, “Yoshlarning boʻsh vaqti – etakchining ish vaqti” tamoyili asosida tadbirlar, loyihalar va musobaqalar hamda toʻgaraklar tashkil etish;

firibgarlik jinoyatlarini sodir etganligi uchun ilgari sudlangan va profilaktik hisobda turuvchi shaxslar bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy profilaktik ishlar va nazoratini kuchaytirish;

aholini kiber-jinoyatchilarning xatti-harakatlaridan xabardor qilish maqsadida, plastik karta kod-raqamlarini begona shaxslarga taqdim etmaslik toʻgʻrisida hududiy

telegram tarmoqlari hamda ommaviy axborot vositalari orqali xabarlar yuborilishini ta'minlash;

sms-xabarnomada ko'rsatilgan kod-raqamlarni begonalarga bermaslik to'g'risidagi eslatma, flaer, banner, tarqatma materiallar tayyorlab, har bir xonadonga, tashkilot-muassasalardagi ishchi-xizmatchilarga tarqatish choralari ko'rish;

4. Tuman - shaharlar sektorlari rahbarlar, viloyat hamda tuman, shaharlar hokimlarining tegishli o'rinbosarlariga:

shahar-tumanlarda huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha mahallalarda ishni tashkil etishda sektor rahbarlari tashabbus va talabchanliklari yanada kuchaytirilsin, tizimli ish tashkil qilgan holda kunlik so'rov va nazorat tizimi yo'lga qo'yilsin;

mahallalarda sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olishda 5050-sonli Qarorga asosan har bir mahallada huquq-tartibot maskanlarini to'liq tashkil qilinishi, tuman (shahar) hokimlari har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish choralari ko'rilsin;

ish sifatini yaxshilash, profilaktika inspektorlari xodimlar orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish maqsadida, o'zlariga birlashtirilgan mahalla hududida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymaganligi uchun mahalla raisi va profilaktika inspektori sektor rahbarlari tomonidan rag'batlantirib borilsin;

bugungi kunda, yoshlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olish maqsadida Yoshlar ishlari Agentligining viloyat boshqarmasi hamda viloyatning 1 ming 23 ta mahallasida faoliyat yuritayotgan yoshlar etakchilari hamda sektor rahbarlari bilan hamkorlikka, muammosi mavjud bo'lgan yoshlarni ajratib olib, ularga murabbiylar birlashtirilgan holda muammolarini bartaraf etish;

xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4343-sonli Qaroriga asosan tashkil etilgan xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha inspektorlari bilan hududiy xotin-qizlar qo'mitasi a'zolari, mahalla faollari tomonidan profilaktik ishlarni kuchaytirish, huquqiy ongini oshirish, ajrimlarni oldini olish, ayollarni ish bilan ta'minlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish ishlariga alohida e'tibor qaratsin;

oila, turmush doirasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish maqsadida ularning muammolarini o'rganish va muammolarni hal etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilasin;

ilgari sudlangan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashishlarini engillashtirish, profilaktika inspektorlari va mahalla faollari tomonidan ushbu toifadagi shaxslar bilan yaqindan ishlash, ularni turmush tarzini kuzatib borish, qayta jinoyat sodir etishlarini

oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rsin;

o'quvchilarni o'qishga kelib-ketish masalasida kundalik nazoratni olib borishi, o'qishdan keyingi vaqtda nima ish bilan mashg'ulligi nazoratga olinsin.

“Ayollar” va “Yoshlar” daftariga kiritilgan ishsiz, ishlash istagi bo'lgan uyushmagan xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish ishlari mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda amalga oshirilsin;

5. Viloyatda sodir etilgan jinoyatlarni joylardagi muhokamalarida Xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman Kengashlarining tegishli deputatlari hamda sektor rahbarlari ishtirok etish choralari ko'rsinlar.

6. Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmasi (T.Aripov) ushbu qarorning ijrosi yuzasidan har chorakda Xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot taqdim etib borsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiya raisi Ra'no Turdiboeva, viloyat hokimligi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari bo'yicha guruhi rahbari Raxmatjon Kuralov hamda viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i Toxir Aripov zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari viloyat
kengashi raisi**



Z.Mirzayev